

QOZOQ XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI VA QOZOQ XONLIGINING VUJUDGA KELISHI

Po'latova Mahliyo

Farğona davlat universiteti Tarix fakulteti Tarix mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada qozoq xalqining etnik shakllanishi va Qozoq xonligining vujudga kelish jarayoni XV–XVI asrlar tarixiy jarayonlari doirasida birlamchi yozma manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Muhammad Haydar Dug'lat, Abulg'oziy Bahodirxon, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari hamda rus yilnomalarida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda olib borildi. Tadqiqot davomida "qozoq" atamasining dastlabki ijtimoiy-siyosiy mazmuni, etnogenez jarayonining asosiy bosqichlari, Qozoq xonligining hududiy shakllanishi va Shayboniylar davlati bilan munosabatlari manbatanqidiy yondashuv asosida yoritildi.*

Kalit so'zlar: *qozoq etnogenezi, Qozoq xonligi, Dashti Qipchoq, birlamchi manbalar, Shayboniylar, Markaziy Osiyo tarixi.*

XV asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida chuqur siyosiy va etnik o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Oltin O'rdaning inqirozi va uning siyosiy merosining parchalanganligi Dashti Qipchoq hududida yangi etnosiyosiy birliklarning shakllanishiga olib keldi. Shunday jarayonlar natijasida qozoq xalqining tarixiy maydonga chiqishi va Qozoq xonligining vujudga kelishi sodir bo'ldi. Ushbu maqolaning maqsadi — mazkur jarayonni faqat birlamchi yozma manbalar asosida, tarixshunoslikda qabul qilingan metodologik tamoyillarga tayangan holda tahlil qilishdan iborat. "Qozoq" atamasi va etnogenez masalasi ma'lumotlarga ko'ra, XV asr o'rtalarida Abulxayrxon davlatida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik natijasida Kerey va Janibek sultonlar atrofida jamlangan qabilalar guruhi alohida siyosiy birlik sifatida ajralib chiqqan. Manbada bu guruh "qozoq" atamasi bilan tilga olinadi.

Manbaning tanqidiy tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur atama dastlab etnik mazmunga ega bo'lmagan. U ko'proq hukmdordan ajralib chiqqan, mustaqil hayot kechirayotgan siyosiy guruhni ifodalagan. Faqatgina XV asr oxiri — XVI asr boshlariga kelib ushbu atama barqaror etnonim sifatida shakllangan. Etnik jihatdan qozoqlar qipchoq, nayman, kerayit, arg'in, qong'iro't kabi turkiy qabilalar asosida shakllangan bo'lib, bu jarayon Dashti Qipchoq hududida kechgan uzoq tarixiy taraqqiyotning mantiqiy davomi hisoblanadi.

"Tarixi Rashidiy"da Kerey va Janibek sultonlarning Mog'uliston hududiga ko'chib o'tishi va Mog'uliston xoni Esenbug'a tomonidan qo'llab-quvvatlangani qayd etiladi. Esenbug'aning ularga Chu va Talas vodiysidan yer ajratib berishi ushbu siyosiy birlikning hududiy asosini yaratdi. Tarixshunoslikda 1465–1466-yillar Qozoq xonligining tashkil topgan davri sifatida qabul qilingan. Ushbu davrda xonlik hali markazlashgan davlat darajasiga yetmagan bo'lsa-da, Abulxayrxon vafotidan keyin

Dashti Qipchoqdagi ko'plab qabilalar qozoq xonlari hokimiyatini tan olgan. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida qozoqlar Dashti Qipchoq hududining asosiy siyosiy vorislari sifatida tasvirlanadi. Manbada Qozoq xonligi hududi Sirdaryo bo'yi, Jetisu, Ural atroflari bilan bog'liq holda tilga olinadi. XVI asrga kelib Qozoq xonligi: janubda — Sirdaryo vohasi, sharqda — Jetisu va Altay hududlari, g'arbda — Ural dashtlari, shimolda — Sibir chegaralarigacha kengaygan. Davlat boshqaruvi Chingiziy legitimatsiyaga asoslangan bo'lib, xonlik hokimiyati merosiy xarakterga ega edi. Jamiyat esa uch yirik hududiy-etnik birlik — Katya juz, O'rta juz va Kichik juzga bo'lingan.

Qozoq xonligi va Shayboniylar davlati o'rtasidagi munosabatlari.

Qozoq-Shayboniy munosabatlari birlamchi manbalarda siyosiy raqobat sifatida aks etgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" sida Muhammad Shayboniyxonning Dashti Qipchoq va Sirdaryo bo'yi shaharlariga egalik qilish uchun olib borgan harbiy harakatlari bayon etiladi.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ikki tomon o'rtasidagi asosiy ziddiyat Sirdaryo bo'yi shaharlari va Dashti Qipchoq ustidan nazorat masalasi bilan bog'liq bo'lgan.

Ushbu raqobat mintaqadagi siyosiy kuchlar muvozanatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Abulg'oziy Bahodirxon Qosimxon hukmronligini Qozoq xonligining eng yuksak davri sifatida baholaydi.

Manbada ushbu davrda qozoqlarning siyosiy ta'siri va hududiy nazorati kengaygani ta'kidlanadi. Aynan Qosimxon davrida qozoq urf-odat huquqi tizimlashtirilgan bo'lib, bu holat davlat boshqaruvida huquqiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Rus yilnomalarida "Qazaq Orda" atamasining qo'llanishi ham Qozoq xonligining xalqaro siyosiy subyekt sifatida tan olinganini ko'rsatadi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qozoq xalqining shakllanishi va Qozoq xonligining vujudga kelishi Dashti Qipchoq hududida kechgan uzoq davom etgan etnik va siyosiy jarayonlarning mahsulidir.

"Qozoq" atamasi dastlab ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo'lib, XV–XVI asrlarda etnik nom sifatida mustahkamlangan.

Birlamchi manbalar qozoq xonligini Markaziy Osiyo tarixida muhim siyosiy va etnik birlik sifatida tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

Birlamchi manbalar:

1. Muhammad Haydar Dug'lat. Tarixi Rashidiy.
2. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.
4. XVI asr rus yilnomalari.

Ilmiy adabiyotlar

1. Bartold V.V. Turkiston mo'g'ullar davrida.
2. Sultonov T.I. Kazaxskoye gosudarstvo v XV–XVI vv.
3. Klyashtornyy S.G., Sultanov T.I. Kazakhstan: letopis' trekh tysyacheletiy.